


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



Ro‘yxatga olindi: № \_\_\_\_\_  
2023-yil \_\_\_\_\_ - \_\_\_\_\_

**ASLIYAT VA TABDIL MUAMMOLARI**

**O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000 – San‘at va gumanitar fanlar
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	230000 – Tillar
<b>Magistratura mutaxassisligi:</b>	70230301 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O‘zbek tili)

**Toshkent-2023**

Fan/modul kodi ATM 105	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024					Jami yuklama (soat)			
			Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)							
		Jami:		ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya	Mustaqil ta'lim (soat)			
Semestr	Har bir semestrdaagi modulning nomi	ECTS - Kreditlar	5	4	60	30	0	30	0	90	150
			Jami:	5	4	60	30	0	30	0	90

**2. I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – matnshunoslikdagi asliyat va tabdil ilmining magistratura bosqichida o'rganiladigan fundamental masalalari yuzasidan nazariy bilim, ilmiy tadqiqot malakasi va ko'nikmasi hosil qilish, qadimiy qo'lyozma manbalarni o'rganish, ularning orasidan e'tiborli nusxalarni topish bo'yicha hukumatimiz tomonidan e'lon qilingan qaror va farmonlar asosida yosh avlodni tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun zamin hozirlash.

Fanning vazifasi – magistrlarda manbashunoslikning tushunchaviy apparati, mumtoz va zamonaviy matn qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish asoslari, tayanch nusxani belgilash tamoyillari, mukammal nusxani yaratish usullari, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladigan qarashlar tizimini yaratish kabi masalalarni kompleks tadqiq etish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Imlo transformatsiyasi qoidalari**

Yozuvlar tarixi. Arab alifbosining o'ziga xos xususiyatlari. Eski o'zbek yozuvi tabiati. Yozuvni o'qish va o'qish malakasidagi nozik farqlar. Transliteratsiya. Muallif huquqi. Matnshunos burchi. Ma'naviy meros ejodlardan omonat sifatida.

**2-mavzu. Tabdilda o'zlashma so'zlar imlosi**

Arabiy va forsiy izofalar imlosi. So'z o'zlashuvda "dominantlik" tushunchasi. Milliy til huquqlari. Shaklda har xillik sabablari va ularning oqibatlari. Transkripsiya o'rinlari.

**3-mavzu. Matn tasarrufida matnshunosning o'rni**

Matn taqqiqi va muhaqqiq. Matn tabiatini anglash birlamchi shart. Muallif konsepsiyasining belgilovchi xususiyati. Matnshunosda aniqlik mantig'i. Matn tabdiliga izohlar majmui. Tabdil va ilmiy-tanqidiy matn munosabati.

**4-mavzu. Asliyat va tabdil qonuniyatlarida istisnoli holatlar**

Qo'lyozmada husnixat va badxatlik xususiyatlari. Poygirdardagi xatolar. Sahifalardagi ketma-ketlikning buzilishi. Uzri o'rinlarni tabdil variantida aks ettirish usullari. Taqdim va xotimada tabdil jarayoniga izohlar.

**5-mavzu. Navoiy asarlari tabdili muammolari**

Navoiy asarlari qo'lyozma va toshbosma nusxalarining o'zaro qiyosi. Ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash jarayonidagi o'zgarishlar. Navoiy asarlari nashrlari tarixi. Akademik nashr xususiyati. Ilmiy ko'rsatkichlar majmuiga qo'yiladigan talablar. Navoiy matni tabdiliiga ilovalar.

**6-mavzu. Mumtoz matnlarni o'rganish tizimi: lug'at, lisoniy tabdil, sharh (matn orti ma'nosi)**

Nazmiy matnni tushunish va tushuntirish ilmi. Notanish so'zlar lug'ati. So'zlarning tillar bo'yicha klassifikatsiyasi. Har misranning o'z ma'nosi va misralararo bog'liqliklar. Mumtoz matnning bugungi tildagi ifodasi. "Muallif nima demoqchi?" degan savolga mustaqil javob variantlari.

**7-mavzu. Matnni anglashda yozuv malakasining o'rni**

Nasta'liq xat turining o'ziga xos xususiyatlari. Eski o'zbek yozuvida unilarning ifodalinishi. Matndagi arabiy va forsiy so'zlar imlosidagi xilma-xilliklar. Matnga bevosita va bilvosita aloqasi bor izohlar.

**8-mavzu. "So'z xususida so'z" kitobida asliyat va tabdil muammolarining yoritilishi**

Mumtoz matn va so'zga munosabat. Ma'no talqinida so'zni tanish malakasi. So'zning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. O'zlashma so'zlarning ko'chma ma'nolarini bilishning ahamiyati. Matnni anglashga kompleks yondashuv.

**9-mavzu. Eski o'zbek yozuvidagi manbalarni o'rganishda "Navoiy asarlari lug'ati"ning ahamiyati**

Lug'atda qo'llangan qisqartmalar izohi. Lug'at tuzilishi. Qadimgi turkiy so'zlar imlosi. Lug'at maqolalar tasnifi. Lug'atda ko'p ma'noli so'zlar izohi. XI-XIX asrlar yozma adabiy matnlarni tushunish uchun muhim manba.

**10-mavzu. "Nazmul javohir" asari ilmiy-tanqidiy matni muammolari**

"Nazmul javohir" asari tabdili. Ilmiy-tanqidiy matn xususiyatlari. To'g'ri o'qish va uqish masalasi. Ilmiy ko'rsatkichlarni ilmiy asosda berish tartibi.

<p><b>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b> Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzularda tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nashr variantlaridagi mumtoz adabiy matnlarni eski o'zbek yozuvida ko'chirish.</li> <li>2. "Mabub qulub"ning qo'lyozma nusxalaridan bir bo'limni tabdil qilish.</li> <li>3. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asariga ilmiy ko'rsatkichlar majmuini tuzish.</li> <li>4. Navoiy g'azallarini asliyatdan o'qish.</li> <li>5. Qo'lyozma va toshbosma kitoblarga umumiy obzor.</li> <li>6. «Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili» (Sh.Sirojiddinov. Akademnashr, 2011) kitobida matn tadqiqi bilan bog'liq masalalar tahlili.</li> <li>7. Rahmonov V. "Matn haqiqati" (O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2010, 30 iyul) maqolasi tahlili.</li> <li>8. Asiyat va tabdil muammolariga bag'ishlangan maqolalar tahlili</li> <li>9. Matnshunoslik yo'nalishidagi dissertatsiyalarda matn tahqiqi masalasi</li> <li>10. "Sabotul o'jizim" ga tuzilgan ilmiy ko'rsatkichlar tizimi</li> <li>11. Matnning anglashda lug'at ilmining ahamiyati</li> <li>12. Tabdil jarayonida nashr variantlarining o'rni</li> <li>13. Tabdilda izoh va matn sharhi kategoriyasi</li> <li>14. A. Rustamiyning «Navoiy til xizmati» («Adiblar odobidan adablar») T.: Ma'naviyat, 2003, 20-34-betlar</li> <li>15. Tabdilda kon'ektura usulining ahamiyati.</li> </ol>	<p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b> Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. «O'qish kitobi» (L.Xalilov. «O'qituvchi, 1994) asarining harflar qismining asosiy xususiyatlarini tasniflash.</li> <li>2. Habibulloh Solih. «Alifbo. Mustaqil o'rganuvchilar uchun» kitobi tahlili. dimiy oqimlarga oid qismini o'rganish va kons'ektlashtirish</li> <li>3. «Husnixat» (Nasaf, 2010) kitobining strukturasi jadval yordamida izohlash;</li> <li>4. «Hayratul abror» dostonini ilmiy-tanqidiy matndan o'qish.</li> <li>5. «Nasoyimul muhabbat» ilmiy-tanqidiy matnidagi izohlar.</li> <li>6. OAV larida tabdil muammolariga bag'ishlangan maqolalar tahlili.</li> <li>7. Abjad hisobiga ta'rixlardan misollar keltirish.</li> <li>8. Navoiyning muammo janrida keltirilgan baytlarini asliyatda yozish va muammoni yechish.</li> <li>9. Transliteratsiyaning muhim jihatlari.</li> </ol>
--	--

<p>10. O'xshash harflarni farqlash iqtidori.</p>	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b> Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- asiyat va tabdil tushunchasining nazariy masalalari yuzasidan magistrlarda analitik mushohada va muhim xulosalar chiqara olish haqida bilimga ega bo'lishi;</li> <li>- mavjud matnlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish, adabiyotimiz tarixida yaratilgan adabiy manbalarning tarixiy ildizlari va namumalarini matnshunoslik masalalari bilan aloqadorlikda o'rganish ko'nikmalarga ega bo'lishi;</li> <li>- matnlarning asl nusxalari va tabdil qilingan variantlarina farqlash bo'yicha Sharq va jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqtirish, egallangan bilim va malakani umumma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish malakaga ega bo'lishi lozim.</li> </ul>
<p><b>3.</b></p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- taqdimotlarni qilish;</li> <li>- individual loyihalar;</li> <li>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>4.</b></p>	<p><b>VII. Talabalarining kreditlarini olish tartibi</b> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMLarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Asliyat va tabdil muammolari fanidan 1-semesterda 150 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 5 kredit beriladi.</p>
<p><b>5.</b></p>	<p>Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi. Talabalarining bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talabalar asosida belgilanadi. Talabalarining bilimini baholash mezonlari: 5 (a'lo) baho - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan</p>

bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

4 (yaxshi) baho - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlarni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

3 (qoniqarli) baho - talaba olgan bilimlarni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

2 (qoniqarsiz) baho - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

#### 6. Asosiy adabiyotlar

1. Sirojiddinov SH. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. -T.: Akademnashr, 2011. -326 b.
  2. Habibullaev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. - T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2000. - 172 b.
  3. Lixachev D.S. Tekstologiya. Kratkij ocherk. -M.-L.: "Nauka", 1964. - 101s.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
5. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
  6. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
  7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017-yil, 8-fevral).
  8. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni ma'rd va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
  9. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
  10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tuzimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017-yil, 2-aprel).
  11. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Ilmiy-tanqidiy matn. (Tayyorlovchi H.Islomiy), -T.: Movarounnahr, 2011. - 426 b.
  12. Alisher Navoiy. Sab' ai sayyor. Ilmiy kritik tekst. (Tayyorlovchi: Porso Shamsiev), T.: O'zSSR FA nashriyoti, 1956. -B.I-IX.
  13. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiev), -T.: Fan, 1970. -B.I-IV.
  14. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. -T.: G'afur G'ulom

nomidagi NMIU, 2011. 1-10 j.

15. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Nashrga tayyor. O.Davlatov. To'rt jildlik. -T.: Tamaddun, 2011. 1-4 j.
16. Lixachev D.S. Tekstologiya. Na materiale russkoy literaturi X-XVII v.v. -M.-L.: Akademii Nauk SSSR, 1962. - 602 s.
17. Reyser S. A. Osnovi tekstologii. -L.: Prosveshenie, 1978. -176s.
18. Reyser S.A. Paleografiya i tekstologiya novogo vremeni. -L.: Prosveuenie, 1970. - 336s.
19. Semyonov A. Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi. Xranyayuxsya v gosudarstvennoy publichnoy biblioteke UzSSR. -T.: Gostexizdat, 1940. - 45s.
20. Tomashevskiy B. V. Pisatel i kniga. Ocherk tekstologii. Izdanie vtoroe. - M.: Iskusstvo, 1959. -280 s.
21. Tursunov YU. "Munshaot" asarining matniiy tadqiqi. -T.: Mumtoz so'z, 2016. -284 b.
22. Firdousi. SHax-name. T.I. V devyati tomax. Nauchno-kriticheskiy tekst. Raznochteniya, primechaniya i prilozheniya M.-N. Osmanova. - M.: Nauka, 1991. - 400 s.
23. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar. - T.: Fan, 1991. - 52 b.
24. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. - T.: Davrpress.NMU, 2013. -496 b.
25. Hasanov B. Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" lug'ati. - T.: Fan, 1981. - 102 b.
26. Is'hoqov F. Gulxaniy "Zarbulmasal"ning ilmiy-tanqidiy matni. Filol.fanlari nomzod...diss. avtoref. - Toshkent, 1997. - 488b.
27. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV-XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari (Qiyosiy tipologik-tekstologik tahlil). Filol.fanlari d-ri...diss. avtoref. - Toshkent, 1998. - 45 b.
28. Xamid Suleyman. Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi: avtoref.dok.filol.nauk. -T.: Ins. Yazzka i literaturq AN Ruz, 1961.
29. Shamsiev P. Alisher Navoiyning "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari: filol.fan. d-ri...diss. avtoref. -Toshkent, 1970. - 146 b.
30. Alisher Navoiy. Mezonul avzon. Ilmiy tanqidiy matn (Asosiy kutubxona. RD/1. Tayyorlovchi: I.Sultonov). 1947.
31. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. (Tayyorlovchi Sh.Eshonxo'jaev). -T.: Fan, 1965. -283 b.
32. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi SH.

	<p>Eshonxo'jaev. – T.: Fan, 1965. – 283 b.</p> <p><b>Internet resurslari</b></p> <p>39. <a href="http://www.kutubxona.uz">http://www.kutubxona.uz</a></p> <p>40. <a href="http://www.literature.uz">http://www.literature.uz</a></p> <p>41. <a href="http://www.ziyonet.uz">http://www.ziyonet.uz</a></p> <p>42. <a href="http://www.alishernavoij.uz">http://www.alishernavoij.uz</a></p>
7.	Fan dasturi Universitet Kengashning 2023-yil ___-avgustdagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>M.Abdulxayrov - “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrası dots., filologiya fanlari doktori</p>
9.	<p>Taqrizchilar :</p> <p>O'razbayev A - UrDU, O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.d.</p> <p>Qurbonova S – UrDU Adabiyotshunoslik kafedrası dotsenti, f.f.n.</p>